GENDER TENGLIK TUSHUNCHASINING FALSAFIY ASOSLARI VA O‘ZBEKISTONDA AYOLLARGA E'TIBOR

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Biologiya va ekologiya fakulteti Biotexnologiya yo‘nalishi
24.01 guruh talabasi **Ziyodullayeva Sabina Farhod qizi**

Annotasiya. *Ushbu maqolada faylasuflarning erkaklar va ayollar tengligi haqidagi g‘oyalari, gender tenglik va feminizm tushunchalari, jamiyat hayotida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faoliyat ko‘rsatishiga to‘siq bo‘ladigan muammolar, O‘zbekistonda ushbu to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar atroflicha tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, feminizm, ayollar huquqi, pozitiv diskriminasiya, inson huquqlari, stereotiplar, ijtimoiy mavqe, xotin-qizlar, ijtimoiy muammo, urf-odatlar.*

Аннотация. *В данной статье подробно анализируются идеи философов о равенстве мужчин и женщин, понятиях гендерного равенства и феминизма, проблемах, которые сдерживают общественно-политическую активность женщин в обществе, а также меры, направленные на устранение этих препятствий в Узбекистане.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, феминизм, права женщин, позитивная дискриминация, права человека, стереотипы, социальный статус, женщины, социальная проблема, традиции.*

Annotation. *This article analyzes in detail the ideas of philosophers about the equality of men and women, the concepts of gender equality and feminism, problems that hinder the socio-political activity of women in society, as well as measures aimed at eliminating these obstacles in Uzbekistan. .*

Key words: *gender equality, feminism, women's rights, positive discrimination, human rights, stereotypes, social status, women, social problem, traditions.*

Gender tenglik tushunchasi uzoq davrlardan falsafaning tadqiqot ob'ekti bo‘lib kelgan. Erkak va ayollar tengligi g‘oyasini birinchi bo‘lib yunon olimi Antifont o‘z asarlarida qo‘llagan holda: «Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi», deb ta'kidlagan. Qadimgi Yunonistonning Suqrot, Aflotun, Arastu kabi olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan va eng yaxshi qonunlar sifatida barcha tengligi kafolatlangan qonunlarni ilgari surishgan.

Aflotun ayollar va erkaklar o‘rtasidagi o‘zaro teng huquqlilikni e'tirof etib, jinslar o‘rtasidagi biologik tafovutlarni nomuhim tafovutlar deb izohlaydi, ayolning reproduktiv holati ularni faqat uy-ro‘zg‘or ishlari bilan chegaralanib, ijtimoiy vazifalardan chetlatilishiga asos bo‘la olmaydi, deb uqtiradi. U yigit va qizlarning ta'lim olishi, erkin kasb tanlashi, o‘z qobiliyatiga yarasha ijtimoiy mavqeni egallashi kabi teng imkoniyatlarni qo‘llab-quvvatlagan.

Sharq qomusiy olimlaridan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan.

Ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizasiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Tarixiy taraqqiyot natijasida xotin-qizlar masalasiga ijtimoiy muammo sifatida qarala boshlandi va bu holat feminizm g‘oyasi bilan bog‘liqdir. 1779 yili fransuz faylasufi J.Kondorse “Ayollarga fuqarolik huquqini berish to‘g‘risida”, Olimpiya de Guj esa “Fuqarolik va ayol huquqi” deklarasiyasi orqali Evropa, keyinchalik AQShda ayollarning ijtimoiy va siyosiy huquqlari uchun harakatga asos

soldilar. Ushbu davrdan boshlab “feminizm” tushunchalari paydo bo‘ldi. Feminizm ayollarni erkaklar bilan teng huquq va teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi hamda ayollarning barcha ko‘rinishlardagi kamsitilishiga qarshi qaratilgan.

Tarix ko‘rsatadiki, feministik harakat xotin-qizlar masalasi unutilgan, davlat boshqaruv organida erkaklar ustuvorlik qilgan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faoliyat ko‘rsatishiga to‘siqlar paydo bo‘lganida yuzaga keladi. O‘zbekistonda ushbu to‘siqlarni bartaraf etishga, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga davlatning o‘zi kirishgan. Feminizm ayollarning o‘z huquq va erkinliklari uchun kurashini ifoda etuvchi ijtimoiy harakat bo‘lsa, “gender” erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarni nazarda tutuvchi tushunchadir. Bugungi kunda falsafaning asosiy masalalaridan biri bo‘lgan insonning ijtimoiy mohiyati muammosi butun dunyoda keng yoyilgan gender tadqiqotlarida o‘z aksini topmoqda. Bu g‘oyaning ilgari surilishi natijasida umumbashariy tafakkurda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi gender tenglikni ta'minlash zaruriyati kun tartibiga qo‘yilmoqda, ularning inson huquqlari va imkoniyatlari tengligini kafolatlashga harakat qilinmoqda. Gender muammosi, eng avvalo ijtimoiy muammo ekanligi, ya'ni faqat ayolning emas, balki erkaklarning ham, jamiyatning ham muammosi ekanligini ta'kidlashga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishlari uchun ijtimoiy-ma'naviy muhit yaratilmoqda. Tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik qobiliyatiga ega bo‘lgan xotin-qizlarning boshqaruv tizimida hech qanday to‘siqlarsiz o‘z qonuniy o‘rnini egallashini ta'minlash, parlamentdagi o‘rnini oshib borishiga erishish ularning hayotdagi mavqei ko‘tarilishi uchun zamindir.

O‘zbekistonda 2019 yil 2 sentyabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi [2] hamda «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi [3] qonunlarning

qabul qilinishi bu boradagi huquqiy asoslarni mustahkamladi. Bugungi kun jamiyatida esa pozitiv diskriminasiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pozitiv diskiriminasiya – bu kam sonli bo‘lgan guruh yoki qatlamga alohida imkoniyatlar va kvotalar berish degani. U korxonada, ta'limda, ilmda va hokazo sohalarda gender tenglikka erishish uchun qo‘llaniladigan usuldir. Masalan, O‘zbekistonda olima, muhandis, dasturchi, jarroh (va hokazo) ayollar kam. Ushbu sohalarda ayollarning ko‘payishiga esa ehtiyoj mavjud. Shunday sharoitda yollarni ushbu yo‘nalishlarga ko‘proq jalb qilib o‘qitish, buning uchun ularga alohida shart-sharoitlar yaratish pozitiv diskriminasiya hisoblanadi. Bugun an'anaviy o‘zbek jamiyatida pozitiv diskriminasiyaga ehtiyoj mavjud. Chunki ayollarimizning ta'lim olishi, ilm bilan shug‘ullanishi va ijtimoiy faolligini rag‘batlantirishga ehtiyoj katta. Qolaversa, jamiyatimizda ayollar zimmasiga ortilgan maishiy majburiyatlar yuki og‘ir. Qonun oilada, jamiyatda turli illatlar, an'ana niqobi ostidagi ojizlarga zulm, ularning huquqini toptash holatlariga qarshi kurashadi. Biz an'analar bilan yashaymiz. Lekin taraqqiyot istasak, qonunlar bilan ham yashashni boshlashimiz kerak. Urf-odatlar shunchaki urf-odat bo‘lgani uchun emas, inson sha'ni va qadr-qimmatini ulug‘lagani, turmushini qulay qilgani bilan qadrli. Ijobiy urf-odat va an'analarni insonni kamsituvchi va tahqirlovchi illatlardan farqlashda o‘rtada faqat bir mezon turadi: inson shaxsi va uning huquqlaridir. Biz milliy ma'naviyatga boy millat sifatida buni tezroq anglashimiz kerak.

O‘zbekiston ayollari mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yanada faol ishtirok etishiga yordam berish “BMT-Ayollar” tashkilotining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda vaqtinchalik maxsus choralarni ko‘rish dasturi amalga oshirilmoqda. Mazkur dastur “BMT-Ayollar” tashkilotining O‘zbekistonning Xotin-qizlar qo‘mitasi, Inson huquqlari milliy markazi, Oliy Majlis, siyosiy partiyalar, nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan olib borilgan keng ko‘lamdagi maslahatlashuv jarayonidan kelib chiqqan tavsiyalar [4] asosida ishlab chiqilib, uning doirasida

O‘zbekistonda boshqaruv lavozimlarini egallaydigan ayollar sonini ko‘paytirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgandir.

Ayolga imkoniyat va vakolat berish, uni faollashtirish jamiyatni yanada rahm-shafqatli, insonparvar va ma'rifatli qiladi. Hozirda jamiyatimizda ayol hokim, ayol rektor, ayol vazir va vazir o‘rinbosarlari barmoq bilan sanarli. Prezidentimiz taklifi bilan O‘zbekiston Oliy Majlis Senatida “Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari” bo‘yicha tashkil etilgan qo‘mita albatta, mamlakatimiz hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularga keng imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning 2019 yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida shunday deydi: “Shu o‘rinda meni ongimizda chuqur ildiz otgan bir aqida ko‘p o‘ylantiradi. Biz doimo ayol - bu ona, oilamiz bekasi, deb ularni ulug‘laymiz. Bu to‘g‘ri, albatta. Ammo hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘lmog‘i shart”. [4]

Bu borada doimiy, ko‘lamdor va salmoqli natijalarga erishish uchun albatta, dasturul amal kerak. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda aynan shu masalalarga bag‘ishlangan hujjat – 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi ishlab chiqildi. [5]

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda gender tenglikni ta'minlash masalasida davlatimiz tomonidan ko‘p ishlar, chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa keyingi yillar ichida ko‘plab qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi va xotin–qizlar muammolarini hal etishda qilingan ishlar, ko‘rilayotgan amaliy chora-tadbirlarning ko‘lami kengayib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston. 2023.
2. https://lex.uz/acts/4494849
3. https://lex.uz/docs/4494709
4. “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qarori, 2021 yil, 28 may.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Mamlakatimizni 2022 yil 1 martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi ma'ruzasi.